



DAVLAT MEXANIZMI TUSHUNCHASI VA UNING TASHKIL ETILISHI

Allambergenov Saparbay Dauletbayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17934492>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 11-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 15-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

«Mexanizm», «Davlat mexanizmi»,
«Davlat organlari», «davlat
tashkilotlari», «Davlat
muassasalari», «Suveren
Qoraqalpog'iston Respublikasi»..

ABSTRACT

Ushbu maqolada mexanizm va davlat mexanizmi tushunchalari, davlat mexanizmining tarkibiy qismlari, davlat organlari, davlat tashkilotlari va davlat muassasalari tushunchalari, davlat apparatining tashkil etilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo'limi hamda demokratik mamlakatlarda davlat mexanizmi haqida fikrlar ilgari surilgan.

Har qanday mamlakatda davlat mexanizmi davlatning asosiy institutsional poydevorini tashkil etadi. Chunki u davlat hokimiyatini bevosita amalga oshiruvchi organlar majmuasidan iborat bo'lib, jamiyatning siyosiy va ijtimoiy hayotini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Ya'ni davlat o'z hokimiyatini amalga oshirish jarayonida tashkiliy tuzilma – moddiy kuchga ehtiyoj sezadi. Mana shu ehtiyoj natijasida esa davlat mexanizmi vujudga keladi.

Huquqshunoslik fanida “davlat apparati” va “davlat mexanizmi” tushunchalari ko'pincha bir-biriga yaqin ma'noda ishlatilsa-da, ular o'rtasida nozik farqlar mavjud. Shu sababdan ham davlat apparati nima ekanligini chuqur anglash uchun, avvalambor, davlat mexanizmi haqida tasavvur hosil qilib olish lozim bo'ladi.

Umumiy ma'noda “mexanizm” bir narsani harakatga keltiruvchi, tarkibiy qismlardan tashkil topgan tuzilma. Shu ma'noda, **davlat mexanizmi** – bu davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan organlar, tashkilotlar va muassasalar tizimidir” deyish mumkin. Ular o'zaro aloqada bo'lib, yagona tizimni tashkil qiladi va davlat boshqaruvining samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Davlat mexanizmi davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy vazifalarini bajarishda xizmat qiladi. Davlat mexanizmining o'zagini davlat apparati tashkil etadi. U esa, o'z navbatida o'z ichiga davlat organlarini oladi. Buning ma'nosi shuki, davlat apparati tarkibiga faqat davlat hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat organlarigina kiradi. Masalan, O'zbekistonning **davlat apparati** deganda, prezidentlik instituti, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi (vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, markazlar, inspeksiyalar va boshqa.), sud hokimiyati (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Harbiy sud va ma'muriy-hududiy bo'linmalardagi quyi sudlar (jinoiy, fuqarolik, ma'muriy), prokuratura organlari va ularning tarkibiga kiradigan boshqa tuzilmalari tushuniladi.

Davlat mexanizmining tarkibiy qismlari esa quyidagi uch elementdan iborat hisoblanadi:

Davlat organlari – davlat funksiyalarini amalga oshirishda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining asosiy bo'g'inidir. Masalan, parlament, hukumat, sudlar, prokuratura, ichki ishlar organlari va boshqalar hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari hisoblanadi.

Davlat tashkilotlari – bevosita ishlab chiqarish hamda ta'minot bilan shug'ullanuvchi davlat idorasi hisoblanib, davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Odatda davlat tashkilotlari tizimiga strategik ahamiyatga ega korxonalar, temir yo'l, havo transporti, energetika, tabiat resurslarini qayta ishlash sohalarida faoliyat yurituvchi subyektlar kiritiladi. Mazkur tashkilotlarning asosiy qismini davlat o'z monopoliyasida qoldiradi. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, "Uzbekistan Airways" AJ, "Hududgazta'minot" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ shular jumlasidan hisoblanadi.

Davlat muassasalari – hokimiyat vakolatiga ega bo'lmagan, davlatning oldida turgan umumijtimoiy-madaniy vazifalarni bajaruvchi idoralardir. Masalan, ta'lim muassasalari, shifoxonalar, maorif, teatr va boshqa muassasalar.

Ba'zida bir tizimda rahbarlikni amalga oshiruvchi tuzilma davlat organi bo'lib, uning tasarrufida davlat tashkilotlari va muassasalari faoliyat yuritishi mumkin. Misol uchun, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Davlat apparati esa davlat mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, u davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun berilgan vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari majmuidan iboratdir [1; b. 85]. Ya'ni davlat apparati deganda davlat nomidan majburiy qarorlar qabul qilish, ularni ijro etish, nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan, davlat mexanizmining markaziy, boshqaruvchi qismi tushuniladi.

Boshqacha aytganda, *davlat apparati* – bu hokimiyatning tashkiliy-huquqiy namoyon bo'lishidir. Davlat mexanizmi esa davlat apparatini ham, unga xizmat qiluvchi tashkiliy, moddiy vositalarni ham o'z ichiga oluvchi, kengroq tushuncha.

Davlat apparati samarali tashkil etilgandagina davlat hokimiyatining barqarorligi, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanadi. Shu sababdan uning tashkil etilishi muayyan qonuniyatlar asosida amalga oshishi lozim.

Davlat apparatining tashkil etilishi – bu, davlat hokimiyatini amalga oshirishni ta'minlovchi kompleks jarayon bo'lib, u konstitutsiyaviy asos, tashkiliy tuzilma, malakali kadrlar va nazorat mexanizmlari birligi orqali ro'yobga chiqadi.

Chunonchi, davlat apparati Konstitutsiya yoki boshqa muhim normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi. Bunda har bir davlat organining maqomi, vakolatlari, tuzilishi, faoliyat tartibi hamda boshqa davlat organlari bilan munosabatlari aniq belgilab qo'yiladi.

Misol uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo'limi "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" deb nomlanib, unda Jo'qorg'i Kengesi (Parlament), Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Rahbari va eng yuqori lavozimli shaxsi), Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi (Hukumat), mahalliy davlat hokimiyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi sud hokimiyati, Konstitutsiyaviy nazorat, prokuratura kabi organlarning faoliyat tartibi mustahkamlab qo'yilgan [2;].

Demokratik mamlakatlarda – davlat mexanizm, hokimiyatlarning bo'linishi tamoyiliga asosan, uch yo'nalishda shakllanadi: qonun chiqaruvchi hokimiyat organi (parlament), ijro etuvchi hokimiyat organlari (hukumat, vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar, mahalliy hokimiyat organlari), sud hokimiyati (konstitutsiyaviy sud va ixtisoslashgan sudlar).

Bundan tashqari, davlat mexanizm tarkibida – prokuratura, hisob palatasi, xavfsizlik xizmatlari, markaziy bank kabi mustaqil nazorat va tartibga soluvchi organlar ham mavjud bo'ladi. Shu tariqa, davlat apparati – davlat hokimiyatining tashkiliy ifodasi sifatida mamlakatni boshqarish, qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda markaziy o'rin egallaydi.

Uning samarali faoliyati konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslanishi, professional kadrlar bilan ta'minlanishi va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Shu bois, davlat mexanizmini to'g'ri tashkil etish va uning faoliyatini takomillashtirish davlat suvereniteti va mustahkamligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. – T. "Yuridik adabiyotlar publish". 2021. B. 85.
2. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-4953674> – murojaat qilingan sana – 25.11.2025.

INNOVATIVE
ACADEMY